

**№ S/4 (3) - 2023**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
ELECTRONIC JOURNAL**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Махсус сон

***Nº S/4 (3) – 2023***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

#### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

#### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон журнали  
1368-сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

#### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Аббасов Беҳзод Бахтиёрович</i>	
1946 – 1965 ЙИЛЛАРДА ФАРГОНА ВОДИЙСИДА ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ ИШЛАРИ ҲАМДА АҲОЛИНИ ЯНГИ ЎЗЛАШТИРИЛГАН ЕРЛАРГА КЎЧИРИШНИНГ БОШЛАНИШИ .....	10-21
<i>Бабаджанов Ҳасан Бахтиёрович</i>	
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАЪМИНОТИДА ТОМОРҚА ХЎЖАЛИКЛАРИНИНГ ЎРНИ .....	22-27
<i>Саидбобоева Гулзора Нематжоновна</i>	
ГОЭЛРО РЕЖАСИ ВА УНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА АМАЛГА ОШИРИЛИШИ .....	28-36
<i>Rasulov Ma'murjon Foziljonovich</i>	
О'ЗБЕКИСТОНДА XALQARO SAYYOHLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY MEROS ОBYEKTALARINING O'RNI .....	37-42
<i>Жиянбекова Шарофат Абдикахаровна</i>	
А.С. ПУШКИН НОМИДАГИ САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ КУТУБХОНА МАРКАЗИННИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ВА ШАКЛЛАНИШИ ТАРИХИ .....	43-51
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i>	
FARG'ONA VODIysi QORAQALPOQLARI HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN .....	52-58
<i>Фарманова Гульнара Комилевна</i>	
ИЗ ИСТОРИИ ПЕРВЫХ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ РАБОТ И ИССЛЕДОВАНИЙ НА АФРАСИАБЕ .....	59-65
<i>Turaev Sherzod Gulboy ugli</i>	
DESCRIPTION OF CHARACTERISTICS AND TYPES OF LIVESTOCK FARMING OF SURKHAN OASIS IN B.H. KARMISHEVA RESEARCH .....	66-71
<i>Сотиболдиев Гайратжон Отамирзаевич</i>	
ИНТЕРНЕТНИНГ ТАЪЛИМ ТИЗИМИГА КИРИБ КЕЛИШИ ТАРИХИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР .....	72-78
<i>Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich</i>	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ТАРИХИ МАНБАЛАРИНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ .....	79-90
<i>Абдуллајсанова Нигорахон Турдалиевна</i>	
БЕРУНИЙ ВА ИБН СИНО ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ ТАРИХШУНОСЛИГИДАН .....	91-95
<i>Дониёров Носиржон Абдухолик ўғли</i>	
ЎЗБЕК ТИЛИ ВА ИМЛО СИЁСАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ТАРИХИДАН .....	96-102

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Юлдашев Обиддин, Махлиё Мамбетқурова</i>	
ИСЛОМИЙ СУФУРТА (ТАКАФУЛ) ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	103-109

<i>Фозилов Умид Закирович</i>	
БОШҚАРУВ ХОДИМЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ОҚИЛОНА БАҲОЛАШ ТАШКИЛОТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИНГ АСОСИ .....	110-118
<i>Shoyev Davronbek Axmadjonovich</i>	
BOSHQARISH SIFATINI OSHIRISHDA “MENEJMENT LABORATORIYASI”NI TASHKIL QILISHNING O’RNI .....	119-125
<i>Орзуқулова Зумрад Абдуҳолиқ қизи</i>	
ТРАНСПОРТ-ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ .....	126-133
<i>Djurakulov Shoxrux, Isaxonova Mohinur</i>	
O’ZBEKİSTONDA RAQAMLI IQTISODİYOT VA UNI TAKOMILLASHTIRISH IMKONİYATLARI .....	134-139
<i>Raxmatullayeva Feruza Azimovna, Sharobiddinov Ahrorbek Qosimjon o’g’li</i>	
YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO’LLARI .....	140-146
<i>Ёдгорова Шахноза Хайридиновна</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ВА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ТҮҚИМАЧИЛИК САНОАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЖРИБАЛАРИ .....	147-155
<i>Qurbanov Ma’murjon G’ayrat o’g’li</i>	
ASOSIY ISHLAB CHIQARISH KO’RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI .....	156-166
<i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i>	
BUXORO VILOYATINING NOMODDIY-MADANIY MEROSONING O’ZBEKİSTON TURİZMI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI .....	167-172
<i>Маматов Бахадир Сафаралиевич</i>	
РИВОЖЛАНГАН ВА РИВОЖЛНАЁТГАН МАМЛАКАТЛАРНИНГ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИ ТАЖРИБАЛАРИ .....	173-188
<i>Гойиназаров Санжар Баходирович</i>	
ИНСОН КАПИТАЛИНИ РАҶАМЛЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДРАЙВЕРЛАРИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ МОДЕЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	189-195
<i>Садинов Азиз Зиядуллайевич</i>	
ЧИҚИНДИ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ҚАЙТА ИШЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	196-203
<i>Курбонова Раҳима Жамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна, Ҳакимов Дамир</i>	
ИЖТИМОЙ КАПИТАЛНИ ЎЛЧАШДА ИЖТИМОЙ ТАРМОҚЛАР ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ .....	204-216
<i>Asamxodjayeva Shoira Shukurullayevna, Maxmudov Muxammadqodir Muzaffar o’g’li</i>	
YASHIL IQTISODİYOTNING MOHIYATI VA UNGA INVESTITSİYALARINI YO’NALTIRISH ZARURIYATI .....	217-222

*Исломов Алишер Бахтиёр ўғли*  
БУХГАЛТЕРИЯ АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШДА ПРОФЕССИОНАЛЛИКНИ  
ТАЪМИНЛАШ ..... 223-229

*Agzamova Nargiza Gapurovna*  
SPECIFICS OF ETHNOGRAPHIC TOURISM AND ETHNIC TOURISM IN UZBEKISTAN .... 230-237

*Муродова Дилноза Чориевна*  
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ  
ТАЖРИБАСИ ВА УНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ ..... 238-245

*Khodjaeva Shodiyabonu Abitjanovna*  
QISHLOQ XO'JALIGIDA AGROMARKETING TIZIMINING AHAMIYATI VA UNING  
FUNKSIYALARI ..... 246-250

## **09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Нуруллаева Зулхумор Сидаматовна*  
МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНӢЙ МАДАНИЯТ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЪАТИНИНГ  
ҮРНИ ..... 251-259

*Ibroximov Sarvar Mo'ydinjon o'g'li*  
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH ..... 260-265

*Yuldashev Ibroxim To'ychiyevich*  
MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MINIATYURA SAN'ATINING ADABIYOT BILAN O'ZARO  
UYG'UNLIGI VA G'OYAVIY ESTETIK VA AXLOQIY TASAVVURLARINING  
MUSHTARAKLIGI ..... 266-271

*Khamdamova Sitora Safarovna*  
MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXIY TARAQQIYOTIDA KROSS-MADANIYATINING O'ZIGA  
XOSLIGI ..... 272-277

*Абдуллаев Джасур Абдивайт ўғли*  
ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КЛАССИФИКАЦИИ КАЧЕСТВ СОВЕРШЕННОГО  
ЧЕЛОВЕКА ..... 278-283

## **10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Xasanov Akbarjon Abdurashidovich*  
O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MILLIY KONSEPTOSFERANI VOQELANTIRUVCHI LINGVISTIK  
BIRLIKLER BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN TADQIQOTLAR ..... 284-292

*Qurbanova Muharram Jurabekovna*  
XURSHID DAVRON SHE'RIYATINING TIL XUSUSIYATLARI ..... 293-297

*Сафарова Замира Рустамовна*  
ИНГЛИЗЧА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР ТАРКИБИДАГИ ИНСОН НОМЛАРИНИНГ ЭТИМОЛОГИК  
ТАСНИФИ ..... 298-304

<i>Gubaydullin Artur Faridovich</i>	THE NUANCES OF HUMOR TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S 'GOOD OMENS' ....	305-313
<i>Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Baxtiyorova Malikabonu Shavkat qizi</i>	ETEL LILIAN VOYNICHNING "SO'NA" ASARIDA BOSH QAHRAMONLAR DINAMIKASI ...	314-318
<i>Seytnazarova Injayim Erjanovna</i>	TILEWBERGAN JUMAMURATOV ASARLARIDA UNDALMALARNING USLUBIY QO'LLANILISHI .....	319-325

<i>Асадова Дилбархон</i>	ЎРХОН ПАМУҚНИНГ "ҚОРА КИТОБ" РОМАНИДА "ЎЗЛИКНИ ИЗЛАШ" МОТИВИ ....	326-342
--------------------------	---	---------

<i>Khusanov Eldor Davlat o'g'li</i>	BUYUK BRITANIYA VA AMERIKA INGLIZ SHEVALALARINING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI .....	343-348
-------------------------------------	---	---------

## 12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Утемуратов Махмут Ажимуратович</i>	ЖАМИЯТДА ХУҚУҚИЙ ОНГ ВА ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ – ХУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ .....	349-355
---------------------------------------	---	---------

<i>Шымбергенова Улзада</i>	ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИДА ВОЯГА ЕТМАНЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАНФААТЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШДА ПЕДАГОГ (ПСИХОЛОГ)НИНГ РОЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	356-362
----------------------------	--	---------

<i>Полвонов Нажмиддин Аслиддинович</i>	ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА МОЛ-МУЛКНИ МУСОДАРА ҚИЛИШ МАҚСАДИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ .....	363-372
--	---	---------

<i>Мирзаев Щухрат Шавкатович</i>	КАТЕГОРИЯ «ДЕЙСТВИЕ ПРАВА»: ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И ПРЕДЕЛЫ .....	373-382
----------------------------------	---	---------

<i>Муҳаммадиев Сарвар Асқар ўғли</i>	"ЖИНОЯТ НАТИЖАСИДА ЕТКАЗИЛГАН ЗАРАРНИ УНДИРИШДА РАҶАМЛАШТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ" .....	383-392
--------------------------------------	--	---------

<i>Махмудов Суннат Азим ўғли</i>	ЖИНОЯТ ИШИНИ ТУГАТИШ АСОСИ СИФАТИДА ЯРАШУВ ВА ХУСУСИЙ АЙБЛОВНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ .....	393-399
----------------------------------	---	---------

## 13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Farrux Axmedov</i>	XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA KURASHNI RIVOJLANTIRISH .....	400-409
-----------------------	--	---------

<i>Музабарова Соодат Хайдаровна</i>	ЎРТА АСРЛАР ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИ МАҶНАВИЙ МЕРОСИДА МУСИҚА ВА УНИНГ ЭСТЕТИК АҲАМИЯТИ .....	410-415
-------------------------------------	---	---------

*Xaydarova Iroda Nizomiddinovna*

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI TALAFFUZINI TAKOMILLASHTIRISH NUQTAYI  
NAZARIDAN 2020-2021 O'QUV YILI FAN DASTURLARI VA MATERIALLARI TAHLILI ... 416-421

*Шукрова Нафиса Алишеровна*

ЗАМОНАВИЙ ВОЛЕЙБОЛГА ХОС ҲИМОЯ ҲАРАКАТЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИЛГАН  
ТАРТИБДА ШАКЛЛАНТИРИШ ..... 422-427

*Nigmanov Bori Botirovich*

FUTBOLCHILARNI TAKTIK TAYYORLASHDA HARAKATLI O'YINLARNING  
AHAMIYATI ..... 428-433

*Муродова Дурдона Раимжон қизи*

БҮЛАЖАК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ БАДИЙ-ЭСТЕТИК  
КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК  
ТЕХНОЛОГИЯСИ ..... 434-438

*Axmedov Alisher Nosir o'g'li*

ANSAMBL BILAN ISHLASH METODLARI VA TAMOYILLARI ..... 439-447

*Saparboyeva Dilshoda Sobir qizi*

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA INSON QADRINI ULUG'LASH MADANIYATINI  
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI ..... 448-452

*Mansurbekova Feruza Gayratovna*

BOLALAR XORLARI BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 453-456

*Xodjayev Bolta Qurbonovich, Xojiyeva Matluba Shukurovna*

O'QITUVCHI MEHNATNI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH YO'LLARI ..... 457-465

*Atamuratova Munira*

O'ZBEK GURUHLARIDA INGLIZ TILINI XORIJY TIL SIFATIDA O'QITISHDA MADANIY  
ASPEKTDAN FOYDALANISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INTERFAOL  
METODLAR TAVSIFI ..... 466-471

*Нурилло Эминов*

ХОРАЗМ ДОСТОНЛАРИНИНГ МОҲИР ИЖРОЧИСИ ОТАХОН МАТЁҚУБОВНИНГ ИЖОДИГА  
БИР НАЗАР ..... 472-476

10.00.00 – Филология фанлари

**Tuxtayeva Dildora Zokirovna**

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Baxtiyorova Malikabonu Shavkat qizi**

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

### **ETEL LILIAN VOYNICHNING “SO'NA” ASARIDA BOSH QAHRAMONLAR DINAMIKASI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada asli irlandiyalik bo'lgan yozuvchisi, musiqachisi va bir qancha inqilobiy fikrlarning tarafdori bo'lgan Etel Lilian Voynichning Rossiyada juda mashhur bo'lgan "So'na" ("The Gadfly") romani to'g'risida so'z boradi. U roman bosh qahramonlarining xarakteri ularning harakatlarida, qilgan ishlarida va atrofidagilari bilan bo'ladigan munosabatlarda oolib berilishini yoritadi.

**Kalit so'zlar:** barrikada, modernism, syujet, badiiy xarakter, Bolshevik, feminist, protagonist, inqilobiy

**Тухтаева Дилдора**

Преподаватель Бухарского государственного педагогического института

**Бахтиёрова Маликабону**

Студентка Бухарского государственного педагогического института

### **ДИНАМИКА ГЛАВНЫХ ПЕРСОНАЖЕЙ В ЭТЕЛЬ ЛИЛИАН ВОЙНИЧ “ОВОД”**

**Аннотация.** Статья посвящена роману «Овод» Этель Лилиан Войнич, писательницы, музыканта и революционерки ирландского происхождения, очень популярного в России. Она освещает раскрытие особенностей главных героев в их поступках, поступках и отношениях с окружающими.

**Ключевые слова:** баррикада, модернизм, сюжет, большевик, феминистка, главная героиня, революционерка.

**Tukhtaeva Dildora**

Teacher of Bukhara State Pedagogical Institute

**Bakhtiyorova Malikabonu**

Student of Bukhara State Pedagogical Institute

### **THE DYNAMICS OF THE MAIN CHARACTERS IN ETHEL LILIAN VOYNICH'S "THE GADFLY"**

**Abstract.** This article is about the novel Gadfly by Ethel Lilian Voynich, a writer, musician and revolutionary of Irish origin, very popular in Russia. It illuminates the revelation of the characteristics of the main characters in their actions, deeds and relationships with those around them.

**Key words:** barricade, modernism, plot, Bolshevik, feminist, protagonist, revolutionary

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI4Y2023N40>

**Kirish.** Yozuvchi Etel Lilian Voynich ingliz adabiyotining Viktoriya davrida tug'ilgan bo'lsa-da, uning ijodiy faoliyati Zamonaviy ingliz adabiyoti davriga to'g'ri keladi. Bu davrdagi o'zgarishlar, ijtimoiy hayotga nisbatan qarashlar, fikrlar har bir yozuvchi va shoirning ijod namunalarida akslangandi. Jumladan, Etel Lilian Voynichning ham. Shunday ekan, adibaning romanlarida ham davrning yo'naliшlariga mos syujet va sahnalar keltirilgan.

"So'na" ("Gadfly") asarining mavzulari inqilobiy Rossiya va Irlandiyadagi muhim ijtimoiy va siyosiy munozaralarga tegishlidir. Asarning joylashuvi tarixiy italyan hududlari bo'lishiga qaramay, roman zamonaviy siyosiy ahamiyat kasb etadi. Benjamin Ramm ushbu asarni shunday tasvirlaydi: "Voynichning asari inqilobiy g'ayrat, diniy sadoqat, ruhoniш xiyonati va ishqiy kechinmalarni o'zida jamlagan hayajonga soluvchi romandir." [2] Hikoyada Arturing inqilobchi sifatida boshidan kechirganlari ochib beriladi hamda voqealar, ayniqsa, diniy va inqilobiy tuyg'ular o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadi.

Etel Lilian Voynichning "So'na" asari nafaqat inqilobiy, balki diniy xususiyatlarga egaligi ko'plab bahs-munozalarga sabab bo'lgan. Jumladan, Mintaqalararo xodimlarni boshqarish Akademiyasining Xmelnitskiy instituti katta o'qituvchisi Mityagina S.S. ta'kidlashicha: "...Ko'p yillar davomida E.Voynichning romanlari va birinchi navbatda uning "So'na" asari dinga qarshi adabiyotning yorqin namunasi deb hisoblangan. Sovet davridagi ilmiy nashrlarda yozuvchining Bibliyani yaxshi bilishi qayd etilgan, lekin ayni ayni o'sha davrda mualliflar uning ateizm pozitsiyasiga egallaganligini ta'kidlashgan...." [6] Bosh qahramon, Artur talabalik yillardan boshlab inqilobiy kurashlar olib boradi va asar foijali yakun topadi. Artur Burtonning o'limini Prisna T. B. shunday ta'riflaydi: "...U g'olib bo'lib vafot etadi. Va bu o'z muammolari bilan ovora bo'lgan neoromantist qahramonning g'alabasi emas edi...." [7]

Edinburg universitetining tarix fanlari doktori, Anna Lively asarning yana bir qahramoni Jemma haqida shunday yozadi: "Xalqaro saylov huquqi harakati davrida, roman ayollarning inqilobiy harakatlarda muhim rol o'ynashi mumkinligini ko'rsatadi. Yozuvchi: "...Jemma barrikadalarda qanday jang qilganini e'lon qiladi. U haqiqiy qahramonlar shakllantiriladigan loydan yasalgan; u mukammal sherik bo'lar edi." Pasxa ko'tarilishidagi Konstans Markevich kabi ayollar yoki Aleksandra Kollontay kabi bolshevik feministlar bo'ladimi, rus va irland ayollar "barrikadalar" da muhim rol o'ynaydi...." [1]

**Badiiy tahlil.** "So'na" asari voqealari 1840-yillarda Italiyaning Avstriya hukmronligi ostida, g'alayon va qo'zg'olonlar davrida bo'lib o'tadi. Hikoya bosh qahramon Artur Burtonning hayotiga bag'ishlangan. Artur va uning sevgan qizi, Jemma o'rtasidagi fojiali munosabatlar bir vaqtning o'zida hikoya orqali o'tadi. Mazkur asar imon, umidsizlik, inqilob, romantika va qahramonlik haqidagi keng qamrovli hikoya hisoblanadi. Artur fojiali romantik qahramon. U voyaga yetadi va dunyoda o'zining haqiqiy holatini kashf qilish va bo'layotganadolatsizliklarga qarshi kurashish uchun harakat qiladi. Asli italyan bo'lmasa-da, Italiyani ozod mamlakat qilishda jonbozlik ko'rsatadi. Asarda bu niyatini Artur shunday bayon etadi: "...Hayotimni Italiya uchun fido etishga, uni qullikdan, qashshoqlikdan qutqazishga avstriyaliklarni haydashga va xudodan boshqa egasini bilmaydigan ozod respublika qurishga chaqiraman..." [3; 13-b.]

Asarda bosh qaramon Artur Burton onasining o'limidan keyin Piza shahriga keladi va o'zining ko'rinishi bilan hammaning e'tiborini tortadi. "... U o'rtamiyona bo'yи, nozik-mo'rt ko'rinishi bilan o'rtahol ingliz oilasidan chiqqan o'ttizinchi yillardagi o'spirindan ko'ra o'n oltinchi asr italyaniga ko'proq o'xshab ketar edi. Uzun qoshlari, serharakat, asabiy og'zi, nozik

lablari, kichkina qo'llari, oyoqlari – hammayog'i haddan ziyod xushbichim, nafis edi. Jim o'tirgan kezlarida, erkakcha kiyingan chiroylikkina qizaloq ekan, deb o'ylash mumkin; ammo u epchil harakatlari bilan qo'nga o'rgatilgan, lekin tirnoqlarini ko'rsatmaydigan qopltonni eslatardi...." [3; 5-b.]

Keltirilgan ta'rifdan shuni bilish mumkinki, Etel Lilian Voynichning "So'na" asarida qahramonning tashqi ko'rinishi singari uning xarakteri ham o'zgaruvchan. Yozuvchi bu xususiyatlarini asarda mahorat bilan gavdalantirgan. Asar voqealar rivojida yozuvchi bosh qahramonning timsolini tobora olib borishga kirishadi va buning uchun turli xil voqealarni keltirib o'tadi. Shunday qilib, romanning birinchi bobida inqilob g'oyalari va Xudoga ishonish o'rtasidagi bog'liqlik namoyon bo'ladi. E. L. Voynich Arturning ana shu ichki fonini ustalik bilan ifodalaydi: "...Yangi ishtiyooq bilan, dinni yangi, aniqroq idrok etish bilan (Artur talabalik harakatida nafaqat siyosiy, balki diniy asosni ham ko'rgan), tinchlik, ma'naviyat tuyg'usi unga to'liqlik va xotirjamlik hamda odamlarga nisbatan munosabat keltirdi. Butun dunyo uning uchun yangi nur bilan yoritildi. U «padrening va'zlarini ishtiyooq bilan tinglar, ularda respublika g'oyalari bilan bo'lgan ichki aloqa izlarini topishga urinardi. Xushxabar haqida uzoq vaqt mulohaza yuritdi va nasroniylikning paydo bo'lgan davridagi demokratik ruhidan quvondi...»" [4; 21-b.] Bosh qahramon Artur Burtonning o'y-xayollari siyosiy va diniy g'oyalar bilan band bo'lgan kezlarida uni go'yo qorong'ulik ta'siriga tushib qolgandek bo'lardi. Ammo ruhoni Montanelli hamrohligidagi Alp sayohati davomida yosh o'spirindagi xayolparastlik o'rnini bolalarcha sho'xlik egallab olgandi: "... Artur tabiat go'zalliggingi ko'rganda mahliyo bo'lib qolardi. Ularning yo'lida uchragan Birinchi sharshara Arturni tasvirlab bo'lmaydigan darajada xursand qildi. U sevinchdan o'zida yo'q shod, unga qaragan kishi ham sevinardi...." [3; 18-b.] Bundan ko'rinish turibdiki, Arturning qalbi va ruhiyati go'zallikka moyil va bu asarda yuksak tasvirlangan.

Yuqorida aytiganidek, "So'na" asari voqealari Artur Burtonning "Yosh Italiya" tashkilotiga a'zo bo'lishi va shundan so'ng uning hayotida bo'lib o'tgan hodisalarga bag'ishlanadi. Tabiiyki, Arturning "Yosh Italiya" kabi siyosiy tashkilotga a'zo bo'lishi va Italiyani ozod etish to'g'risidagi fikrlari uning ruhoni otasi bo'lgan Montanellini tahlikaga solib qo'yadi va u bir necha bor yosh o'smirni bu yo'ldan qaytarishga urinadi. Montanelli Arturni bu tashkilotga ko'r-ko'rona, bilib-bilmasdan qasam ichib bog'lanib qolgan deb o'laydi. Basharti, Artur bu savollarga shunday javob qaytaradi: "...Odamlarni qasam bog'lamaydi. Agar sizni biror g'oya qamrab olganini sezsangiz, buni chuqur sezsangiz, shuning o'zi kifoya. Aks holda, sizni hech nima bog'lay olmaydi...." [4; 20-b.] Mazkur fikrlar, Arturning qat'iyatli, g'ururli hamda har bir ishni ham zohiran, ham botinan o'ylab, so'ngra bajarishidan dalolat beradi.

Etel Lilian Voynich bosh qahramonning o'y-fikrlari va ichki kechinmalarini nozik qirralarigacha olib berishga harakat qiladi. Aslida, Artur ota-onasining o'limidan so'ng ota bir akalarining qaramog'ida qoladi. Uning ikki akasi kemasozlar bo'lib, badavlat odamlardan edi. Shu sababli, Artur nozikta'b, tarbiyalali, ko'zi to'q hamda tozalikka qattiq rioya qiladigan bo'lib yetishadi. Keyinchalik, inqilobi g'oyalar tarqatishda ayblanib birinchi marta qamoqqa olingani, karserga tashlanganida, Artur o'zini yo'qotib qo'yadi. Bunday vaziyatda na ibodat, na tashkilot haqida o'ylash u yoqda tursin, hatto, vaqt va makon tushunchalarini ham angolmay tang holatga tushib qoladi: "... umrida birinchi marta o'zini tutolmadidi. Soatlar ketidan soatlar o'tib borardi. Vaqt va o'rin tushunchasi uni tark etmoqda edi. Zulmat chegarasiz, bosh-adoqsiz ko'rindi. Hayot ham, uning nazarida, to'xtab qolganday edi." [3; 63-b.]

“So‘na” asaridagi qahramonlarning din va diniy ong bilan bog‘liqligi juda katta. Voynich asar qahramoni Artur Burton obrazi orqali xristianlik dini va uning asoschisining ham hayotini ko‘rsatishga harakat qilgan. Bosh qahramon Artur eng mushkul vaziyatlarda ham o‘z diniga va payg‘ambariga qattiq ishonadi va ibodatlarini ham sidqidildan bajaradi. Misol qilib aytganda, pasxa arafasida u akalarining uyiga boradi, tushlik tortilganda esa ro‘za ekanligi sababli ovqatdan bosh tortadi. Artur akasi Tomas aytganidek, “ro‘zani haddan tashqari qattiq” tutar edi. Yuqorida keltirilgan fikrlar Artur Burtonning haqiqiy xristian, jonkuyar inqilobchi, ichki va tashqi go‘zallik sohibi hamda ahdiga sadoqatli shaxs sifatida tanishimizga yordam beradi.

Asar qahramonlaridan yana biri bu Jemma Uorren hisoblanib, yozuvchi mazkur qahramon orqali inqilobchi ayol timsolini yaratgan. Xalqaro saylov huquqi harakati davrida yozilgan, markaziy ayol qahramoni Jemma Uorren, harakati juda hurmat qilinadigan ayoldir. Voynich nafaqat o‘zining shaxsiy tajribasidan, balki muallif atrofidagi boshqa inqilobchi ayollardan ham ilhomlangan. “...Faqat partiyadagi ishi orqali biladiganlar uni ancha mashq olgan va mustahkam intizomga ega bo‘lgan hamda to‘la-to‘kis ishonsa bo‘ladigan xodim deb, partiyaning dadil va hamma masalalarda qimmatli a‘zosi, lekin oddiy hayotda ko‘zga ko‘rinmaydigan tussiz kishi hisoblardilar. “U tug‘ma inqilobchi, bizga o‘xshaganlarning o‘n ikkitasiga bas keladi, lekin bundan ortiq hech narsasi yo‘q”, - degan edi Galli u haqida...” [3; 110-111-b.] Voynich roman syujetining markaziy qismi sifatida nafaqat inqilobiy guruhni, balki ushbu guruhning zarur qismi sifatida yangi turdag'i ayolni ham olib keladi.

Yoshlik chog‘laridan u bilan birga ulg‘aygan Artur Jemmaning ham “Yosh Italiya” harakatiga a’zo ekanligini bilganidan so‘ng bundan g‘oyat xursand bo‘ladi. Bolalikdan do‘sifatida Artur Jemmani juda yaxshi bilardi va u haqida shunday orzu qilardi: “...Jemma barrikadalar ximoyachisi bo‘ladi. U kelajak qo‘zg‘olonida qahramon bo‘lish uchun tug‘ilgan. Asl o‘rtoq, pok va qo‘rqmas qiz bo‘ladi, bir emas, behisob shoirlar ilhomlanib kelgan ideal obraz bo‘ladi...” [3; 50-b.]

Artur Burtonning uyijshtirilgan o‘limidan so‘ng Jemma Uorren “Yosh Italiya” harakati a’zolaridan bo‘lgan Giovanni Bollaga turmushga chiqadi va Jemma Bollaga aylanadi. Yakka-yu yagona o‘g‘li va turmush o‘rtog‘ining bevaqt o‘limidan so‘ng Jemma bor kuchini Italiya ozodligi yo‘lida sarflaydi. Ish bilan mashg‘ul kezlarida Jemma jiddiy va qizishmaydigan bo‘lib ko‘rinsada, aslida, u juda g‘amxo‘r va yaxshi yupanch bo‘la olar edi. Asarda Jemma obrazi juda ta’sirchan tarzda ifodalangan. U har bir voqelikdan ta’sirlanadi va inson qadri va qimmati to‘kilishiga qarshi obraz tarzida gavdalantiriladi. Bunday holatlarga bir nechta o‘rnarda guvoh bo‘lish mumkin. Misol tariqasida aytish mumkinki, So‘na bir ziyofatda Sinora Grassinini masxara qilganda, aqli qisqa, basti kichkina xotinga achingan holda Jemma shunday deydi: “...meningcha, birovdan kulish uchun aqli kaltaligini dalil qilish – oliyjanoblikka sira ham kirmaydi, balki uyat ham...” [3; 122-b.] Yoki umri davomida birinchi marta sirk tomosha qilib, bukur rolini ijro etayotgan odamga achinadi va uning ahvoliga qayg‘uradi: “... lekin odam vujudi, meningcha, tabarruk bo‘lishi kerak. Inson vujudini masxara etishlariga, uni jo‘rttaga mayib qilishlariga sira-sira chidab turolmayman....” [3; 164-b.] Ushbu fikrlar Jemmaning naqadar insonparvar va xalqchil ekanligidan dalolat beradi.

Asardagi Artur va Jemma o‘rtasidagi sevgi qissasi ozodlik kurashi yo‘lidagi chekilgan zahmatlarga ulanib ketadi. Artur uzoq yillardan buyon ishonib kelgan eng yaqin ruhoni otasi Montanelli o‘zining haqiqiy otasi ekanligi va, hatto, onasi ham bu sirni undan yashirgani iztirobiga chidolmagani sababli Italiyadan uzoqroqqa ketadi va oradan o‘n uch yil o‘tgandan

keyin Rivares nomi ostida qaytadi. Jemma unga har qaraganida go'yo Arturni ko'rgandek bo'lsada, uni o'lgan deb ishonar edi. So'na (Rivares) ham o'zining aslida kim ekanligini bildirmaslik uchun Jemmaga haddan tashqari qo'pol munosabatda bo'ladi. Asar davomida Artur va Jemma o'rta sidagi keskin munosabatlar, ularning xarakterlaridagi o'zgarishlar yozuvchi tomonidan ochib berilgan. Asar Arturning fojiali o'limi bilan yakunlanadi. Ammo Jemma Rivaresning aslida Artur ekanligini uning o'limidan keyin biladi. Artur Jemmaga qancha qo'pollik qilgan bo'lsa ham haqiqatda yuksak insoniy fazilatlar sohibi sifatida undan kechirim so'raydi va umrining oxirigacha Jemmani sevganiga iqror bo'ladi: "men sizni kokil qo'yib yurgan kichkina qizchalik chog'ingizdan beri sevar edim. Hozir ham sevaman. Bilaman men xunuk ish qildim, siz meni kechirishingiz kerak..." [3; 378-b.]

Yozuvchining yoshligi aks etgan romanning haddan tashqari hissiy tarangligi, uning ozodlik kurashi g'oyalalariga ishtiyoqi, qahramonlar his-tuyg'ularining olivjanobligi, ularning buguni va o'tmishiga nisbatan ishqiy timsoli, doimiy maxfiyligi – ana shu asarning yorqin fazilatlaridir.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mazkur asar qaysidir tomonidan Etel Lilian Voynichning o'z hayotiga borib taqaladi. Adiba bu asarni yozish barobarida yoshlik davrining o'zgarishlari, qaysarliklari va shijoatini akslantirishga harakat qiladi. Ayniqsa, asar voqealari inqilob davrida sodir bo'lganligi tufayli, badiiy personajlardagi ruhan charchash yoki adalatsizliklarga qarshi g'azab hislariga to'la hisoblanadi.

Artur Burton - kuchli va butun his-tuyg'ularga ega odam. Aynan otasi Montanellini juda yaxshi ko'rgani uchun uni yolg'onchilagini kechira olmaydi, u bilan kelisha olmaydi. Aynan u Jemmani juda yaxshi ko'rgani uchun unga shapaloq urganini kechirolmaydi. Bu haqoratning o'zi emas, balki uning halolligiga, jasoratiga, o'z e'tiqodlariga sodiqligiga shubha qilganidan darak berardi va buning uchun u hech kimni kechirolmaydi. Adiba Etel Lilian Voynich ayol kishi bo'lishiga qaramay, inqilobi harakatlar aks etgan buyuk asar yozishdek jasoratga qo'l urgan beqiyos timsoldir. Uning tuyg'ulari va hislari asarlarining jozibasi bilan yuraklarning tub-tubigacha kirib bora oladi. Qisqa qilib aytganda, ushbu roman insonni o'z qarashlarida qat'iy va sobit bo'lishga o'rgatadi.

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Anna Lively: Voynich's The Gadfly: Exploring connections between revolutionary Russia and Ireland posted on December 10, 2018 by Age of Revolutions.
2. Benjamin Ramm "The Irish novel that seduced the USSR" posted on 25, January 2017 <https://www.bbc.com/culture/article/20170119-the-irish-novel-that-seduced-the-ussr>
3. Etel Voynich So'na , Toshkent, "O'zbekiston" -2015
4. Ethel Lilian Voynich The Gadfly, 1897
5. Evgeniya Taratuta. Our Friend Ethel Lilian [Boole] Voynich, Izdatel'stvo, Pravda, Moskva – 2008
6. Mityagina S.S. "The Novel "The Gadfly" by E.L.Voynich as an expression of revolutionary-religious modernism" posted by Electronic scientific & practical journal "Modern scientific researches and innovations", <https://web.s nauka.ru/en/issues/2011/08/1705>
7. Prisna T. B. "E. L. Voynich's romantic hero in the context of neoromantic fiction", <https://ekmair.ukma.edu.ua/handle/123456789/10666>

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Махсус сон

*Nº S/4 (3) – 2023*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**" электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масьулияти чекланган жамият

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).